

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTLARNI TUTGAN O'RNI**Qodirov Samandar Bobir o'g'li***Farg'ona Davlat Universiteti**Harbiy ta'lim fakulteti kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqola Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida badiiy adabiyotning ahamiyati va ulardagi tarixiy obrazlarning ijtimoiy estetik ahamiyatini, tarixiy qimmatini to'laroq tushuntirish. Radio, televideniya, audio va video materiallaridan foydalanish muhim vosita bo'lib xizmat qilishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *prizidentimiz, adabiyot, san'at, madaniyat, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotlar, musiqa, teatr, kino, tasviriy san'at, Zahiriddin Muhammad Bobur A.Qodiriy, A.Muxtor, O.Yoqubov A.Oripov, E.Vohidov, Muhammad Yusuf, Shiroq, To'maris, Radio, televidenie, audio va video materiallar.*

Muxtaram prizidentimiz aytganlaridek «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi» Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz.

Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega.

So'z san'atining o'ziga xos qonuniyatlari, adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o'rni, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy ijod turlari, ijodiy jarayon haqidagi fikrlar o'quvchi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Ayrim asarlarning yaratilishi, asar muallifi, asardagi qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan voqea-hodisalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun tarixiy sharoit va geografik muhitni bilish zarurati ham paydo bo'ladi. Bu o'z-o'zicha adabiyot o'qitish metodikasi fanining tarix va geografiya fanlari bilan doimiy aloqada bo'lishini taqazo etadi. Musiqa, teatr, kino, tasviriy san'at va boshqa san'at turlari bilan aloqadorlik haqida gapirishga hojat yo'q. Biz bu yo'nalishda pedagogika va psixologiya turkumidagi fanlarni alohida ta'kidlashimiz joiz. Modomiki, badiiy adabiyotni o'rganishdan ko'zda tutilgan bosh maqsad insonni tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazish ekan, demak, bunda ayrim pedagogik hamda psixologik qonuniyatlarning hech bo'lmaganda umumiy qonuniyatlarini bilmasdan turib olg'a qadam tashlashning imkoni bo'lmaydi. Bu

sanoqni yana davom ettirish mumkin. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganish hayotiy zaruratdir. Birgina 9-sinf O'zbek adabiyoti darslik majmuasini shu nuqtai nazardan ko'zdan kechiraylik. Darslik majmua «Xalq og'zaki ijodi», «O'zbek adabiyoti tarixi», «XX asr o'zbek adabiyoti» hamda «Jahon adabiyoti» qismlaridan tashkil topgan. Yuzaki qaragandayoq bu mavzularni o'tishda etnografiya, tarix, geografiya, ona tili, adabiyot tarixi, san'at tarixi, teatr bilan nechog'lik bog'lanib ketganligini tasavvur etish mumkin.

IX sinfda adabiyot tarixiga oid manbalar o'tilganida asarning tili va uslubini ona tilidagi uslub turlari, til vositalari, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uning o'z hamda ko'chma ma'nosi va boshqa tushunchalarga murojaat qilinishi tabiiydir.

V sinfda "Afsonalar" mavzusining o'tilishida o'quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlari qo'l keladi. Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchi dushmanlarga qarshi kurashi tarixi Shiroq, To'maris kabi obrazlarning ijtimoiy-estetik ahamiyatini, tarixiy qimmatini to'laroq tushunishga yordam beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda tarix darsliklaridagi "Boburiylar sulolasi davrida Hindiston va uning madaniyati" mavzulari o'quvchilarning adabiy materialni oson va teranroq tushunib etishlariga imkon yaratadi.

Radio, televidenie, audio va video materiallar ham adabiyot o'qitishni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda tashkil etishning muhim vositasidir.

Tarixiy mavzudagi asarlar tahlili, tarix, ekranlashtirilgan asarlar tahlili kino san'ati bilan bog'lanmasa, ko'zlangan natijaga erishib bo'lmagani kabi, adabiy qahramonlarning fe'l-atvori, o'zaro ziddiyatli munosabatlari haqida so'z yuritganda e'tika va ruhshunoslik fanlari erishgan yutuqlarga tayanilmasa, murod hosil bo'lmaydi. Bizningcha, masalani shunday qo'yish kerakki, o'quvchilar nazariy bilimsiz, badiiy asarni tushunish, tahlil qilish mumkin emasligini anglab yetsinlar». Badiiy adabiyot olamni o'zlashtirishning o'ziga xos vositasi va manbayidir. Bu jihatdan u fan bilan yaqinlashadi. Olamni aksettirishdagi obrazlilik bilan undan ajralib turadi.

Badiiy adabiyot olamni har doim ko'rsatmalarga boy tarzda ko'rsatadi. Engmuhimi, ularda o'quvchi qalbiga ta'sir ko'rsatadigan estetik lazzatva huzur, ma'naviy saboq mavjud bo'ladi. Bularning barchasi o'quvchining qalbida yuksak ma'naviy tuyg'ularning shakllanishi hamda ulardan bahramandlik sharofati bilan hosil bo'ladigan ma'naviy qoniqishga olib keladi. Biz harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tamoyillari haqida so'z yuritganimizda, bizning ixtiyorimizda bo'lgan, insonlarning hissiyotlari va ongiga ta'sir etishga aniq yo'naltirilgan barcha shakl va usullardan to'liq va ijodiy tarzda foydalanishni nazarda tutamiz. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mavzusi o'zbek adabiyotidan mustahkam o'rin oldi va uning bugungi kundagi rivoji davom etmoqda.

Shunisi diqqatga sazovorki, bir qator yozuvchilarimiz o'z ijodlarida yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga katta ahamiyat bermoqdalar. Shuning uchun ham kundan-kunga harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi asarlar namunalari ko'payib,

ularning badiiy saviyalari ham oshib bormoqda. Xalqimizning sevimli yozuvchilari A.Qodiriy, A.Muxtor, O.Yoqubov va boshqalarning asarlarini bugungi kunda yoshlarimiz ham qiziqib mutolaa qilishmoqda. Zabardast shoirlarimiz A.Oripov, E.Vohidov, Muhammad Yusuf singari ijodkorlarning hayot yo'li yoshlarimiz uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilmoqda.

Harbiy-vatanparvarlik mavzusida chop etilayotgan nashrlarning ko'lami juda ham kengdir. Urush va mehnat haqidagi yangi asarlar va maqolalarning aksariyat qismi uning mualliflarining aniq ifodalangan e'tiqodlari, muammolarga ilmiy yondoshganlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jasorat va fidokorona mehnatga chorlovchi yo'nalishdagi asarlar mazmunlari, shuningdek mualliflarning, insonning jangda yoki mehnatdagi harakatini ijtimoiy mohiyatini chuqur ifodalab berish saviyalari oshib bormoqda.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida asar mualliflari va qahramonlari bilan o'tkaziladigan uchrashuvlar katta ahamiyatga egadir. Chunki, ular o'zlarining hikoyalari bilan o'quvchilarga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsata oladilar, bu esa uchrashuv qatnashchilari xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Yaxshi tashkil etilgan bundan uchrashuvlarning yoshlarga tarbiyaviy jihatdan ta'siri ham yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.Tilavoldiyevning " Harbiy vatanparvarlik asoslari" darsligi Farg'ona 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi,
5. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi,
6. «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinlarining Nizomi
7. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi»
8. «Vatan himoyasi-muqaddas burch» T. Harbiy nashriyot, 2000 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining «Vatanparvar» gazetasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining «O'zbekiston Qurolli Kuchlari jurnali» T.